



MUSIQA MADANIYATI FANINI O'QITISHDA FANLARARO ALOQANING O'RNI

Maraimova Dilnoza Askarovna

*Yangiyo 'l shahar 9-umumiy o'rta ta'lim maktabining musiqa madaniyati fani
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada musiqa madaniyati fanini boshqa fanlar bilan bog'lash orqali bilimlarni boyitish haqida fikrlar berilgan. Musiqa madaniyati fani o'qituvchilari, mustaqil izlanuvchilar uchun tavsiya etiladi.*

Kalit so'zlar: *Musiqa, san'at, o'quvchi, tarix, madaniyat, adabiyot.*

“Tarbiya qiluvchilar tabib kabitrlar, tabib xastani badanidagi kasalikka davo qilgani kabi, o'qituvchi ham bolani musiqa orqali aqliy rivojiga, diqqat markaziga ta'sir etib, ularda poklik, sadoqat, mehr, kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi”.

Abdulla Avloniy

Darslikda musiqa so'ziga turli – tuman tovushlar bilan obraz yaratib beruvchi, g'oyaviy emotsional mazmunga ega bo'lgan san'atning bir turidir degan ta'rif berilgan. Haqiqatdan ham musiqa o'quvchilarni san'at bilan tanishtiradigan fandır. Musiqa darsi o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik taribiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.¹

Musiqa madaniyati darsi boshqa tasviriy san'at, adabiyot, matematika, tarix, jismoniy tarbiya, informatika fanlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida musiqa darsini hayot bilan bog'lashga, mazmunli, qiziqarli qilib olib borishga yordam beradi. Musiqa madaniyati alohida fan sifatida emas balki boshqa fanlar bilan integratsiyalashi haqida fikr mulohazalarimizni taqdim etamiz. Musiqa tarix va ta'sviriy san'at fanlari bilan chambarchas bog'liq. Fikrimizni quyidagi misollar bilan tasdiqlaymiz. Musiqa san'ati juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan va barcha xalqlarda o'z o'rniga ega san'at turlaridan desak adashmaymiz. Xususan o'zbek xalqi yaratgan musiqiy merosning ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimizning maftunkor tasviriy san'ati tufayli bizgacha yetib kelgan yodgorliklar o'zbek cholg'u musiqasi qadim zamonlardan boshlanganligini ko'rsatadi. Ko'hna Afrosiyobda olib borilgan qazilmalarda qo'lida surnay ushlagan haykalcha topilgan. Olimlar bu haykalchani eramizdan, ya'ni miloddan avval III-I asarlarda yaratilgan, deb tahmin qilmoqdalar. Ayritosh nomi bilan fanda mashhur bo'lgan nodir yodgorliklar, Sulton Uvays tog'ining janubiy tizmalari boshlanadigan

¹ T.Ortiqov. Musiqa o'qitish metodikasi.T.: Muharrir nashriyoti, 2011.



tekislikdagi qadimiy To‘proq qaladan arfa chaluvchi ayol tasviri tushirilgan topilmalar olimlar fikricha III-IV asrlarga mansub ekan.²

Musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot bilan uzviy bog‘langan. Adabiyot ham musiqa kabi didni tarbiyalaydi. San‘at turi sifatida esa adabiyot so‘z, til vositasida badiiy obrazlar yaratuvchi sohadir.³ Musiqa mashg‘ulotlari ko‘pincha badiiy so‘z bilan belgilanadi. So‘z mulkning sultoni Navoiy bobomiz o‘z asarlarida musiqani chuqur o‘rganib, shunday degan edi: “Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o‘z-o‘zidan qanoat tuyg‘usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi.”⁴

Fikrlarimizga qo‘shimcha qilib musiqa madaniyati fanida dostonchilar asarlarining elementar asoslari o‘rgatilishi ham adabiyot fani bilan tutash nuqtalari borligiga misol bo‘la oladi.

Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun fanlararo aloqa metodidan unumli foydalaniladi. Turli metodlar orqali o‘tkaziladigan har bir musiqa madaniyati darslari o‘quvchilarda badiiy estetik zavq bag‘ishlaydi, ijodiy fikrlash qobiliyati hamda nutqini o‘stiradi. Bundan tashqari to‘garak mashg‘ulotlarida musiqaviy o‘yin va raqslar, sahna ko‘rinishlari o‘quvchilarda ritmni his qilish, harakatchanlik sifatlarini rivojlantiradi hamda qomatning to‘g‘ri o‘sishiga yordam beradi. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda musiqa madaniyati fanini jismoniy tarbiya faniga ham bog‘liqlik jihatlari bor ekanini ayta olamiz.

Musiqa madaniyati darslarida o‘qituvchi jonli ijrodan tashqari taqdimot, multimedia vositalaridan foydalangan holda bolalar xori, cholg‘u asboblari yordamida yaratilgan musiqiy asarlar, xalq qo‘shiq va kuylarini tinglash bilan o‘quvchilarni sehrli musiqa olamiga olib kiradi. Bu bilan esa informatika va musiqa madaniyati fanlarini o‘zaro bog‘laydi.

Musiqa orqali o‘quvchilarning ma’naviy dunyosi shakllanadi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi.

Buyuk mutafakkirlardan Abu Nasr Forobiy shunday deb aytgan edi: “Musiqa – nodir san‘at, ezgulikka yetaklovchi kuchdir, kimki ilm, hikmat o‘rganmoqchi bo‘lsa avvalo o‘zi ma’naviy barkamollikka erishmog‘i lozim” .⁵

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T.Ortiqov. Musiqa o‘qitish metodikasi. T.: Muharrir nashriyoti, 2011.
2. G.Sharipova, Z.Xodjayeva. Musiqa o‘qitish metodikasi/darslik/Toshkent-“NIF MSH” – 2020.

² T.Ortiqov. Musiqa o‘qitish metodikasi. T.: Muharrir nashriyoti, 2011.

³ “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (besh jildli). T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

⁴ G.Sharipova, Z.Xodjayeva. Musiqa o‘qitish metodikasi/darslik/Toshkent-“NIF MSH” - 2020

⁵ G.Sharipova, Z.Xodjayeva. Musiqa o‘qitish metodikasi/darslik/Toshkent-“NIF MSH” - 2020



3. B.Boltayev, J.A.Xodjayev. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi. Darslik. – S.:SamDU nashriyoti, 2021.

4 “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (besh jildli). T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.